

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

2018 yil yanvar oyida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **327,1 mlrd.so'mni**, o'sish **2,7 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **-99,5 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **51,5 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **59,4 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'iycha 2018 yilning yanvar oyida viloyat korxonalarini tomonidan 327,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 1,4 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 4,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 30,1 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yil yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 302,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 92,6 % ni tashkil etdi.

Yanvar oyida Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	2017 yil	2018 yil	2017 yil yanvarga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	1,8	1,4	82,1
Paxta tolasi, ming tonna	9,5	8,1	85,0
Aroq – ming litr 100 % spirt	1024,0	57,5	5,6
Vino, ming litr	120,0	146,9	122,4
Un, ming tonna	2,1	1,9	90,2



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,3 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 168,6 trln.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar oyiga nisbatan 0,5 % ga pasaygan, jami sanoatdagi ulushi esa 51,5 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 46,7 % dan 2018 yilning yanvar oyida 47,4 % ga oshishi kuzatilmoqda.


Yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 42,5 % ulushini), Uychi tumani (8,7 %), Namangan (8,3 %), Uchqo'rg'on (7,9 %), To'raqo'rg'on (7,2 %), Pop (6,5 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilning yanvar oyida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Chortoq (1,7 %), Kosonsoy (2,2 %), Yangiqo'rg'on (2,7 %), Mingbuloq (3,5 %) va Norin (4,1 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Pop (2017 yilning yanvar oyiga nisbatan 131,3 % ga), Chust (118,6 % ga), va Namangan shahar (106,1 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar oyida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 59,4 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo`rg`on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (99,5 %), Kosonsoy (94,2 %) va Namangan (83,6 %) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (16,5 %), Pop (24,1 %) va Uchqo`rg`on (24,8 %) tumanlarida kuzatildi.


2018 yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 4 mingga yaqin sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1989 tasi Namangan shahrida, 275 tasi Chust, 262 tasi Namangan, 250 tasi Uychi, 219 tasi To'raqo'rg'on, 202 tasi Kosonsoy, 149 tasi Chortoq, 134 tasi Pop, 133 tasi Yangiqo'rg'on, 128 tasi Uchqo'rg'on, 110 tasi Norin va Mingbuloq tumanida joylashgan.

2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar oyi davomida viloyatda 93 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 72 % Namangan shahri, Namangan, To'raqo'rg'on, Uychi va Kosonsoy viloyatlariga to'g'ri keladi.

Namangan viloyat statistika boshqarmasining Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

I.Axmedjanov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-84-80